



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

NOSTANDART MASALALAR ORQALI BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARI IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Karimova Kunduz Ruzibayevna

Urganch davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda masala, nostandart masala bilan ishlash jarayonining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Masala yechish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati, diqqat va xotirasi rivojlanishi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, nostandart masalalarni o‘quvchilarga o‘rgatish orqali o‘qituvchi ijodiy faolligini rivojlantirish masala yordamida ochib berilgan

Kalit so‘zlar: masala, nostandart masala, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, mustaqil faoliyat, matematik nutq.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ НЕСТАНДАРТНЫХ ЗАДАЧ

Каримова Кундуз Рузибаевна

Ургенчский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье освещается образовательная и воспитательная значимость задачи и процесса работы с нестандартными задачами в начальных классах. Научно и педагогически обосновано развитие логического мышления, самостоятельности, речевой культуры, внимания и памяти учащихся посредством решения задач. Также показано развитие творческой деятельности учителя при обучении учащихся нестандартным задачам.

Ключевые слова: задача, нестандартная задача, логическое мышление, компетенция, начальное образование, самостоятельная деятельность, математическая речь.

DEVELOPING THE CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH NON-STANDARD TASKS

Karimova Kunduz Ruzibayevna

Urgench State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article highlights the educational and educational significance of the process of working with issues and non-standard matter in primary grades. The development of students' logical thinking, independent thinking, speech culture, attention and memory through problem solving is scientifically and pedagogically substantiated. Also, the development of teacher creative activity by teaching students non-standard matters is revealed using the problem.

Keywords: issue, non-standard matter, logical thinking, competence, primary education, independent activity, mathematical speech.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaruvchi bosqichdir. O‘quvchilar aqliy rivojlanishi uchun eng asosiy fan bu albatta matematika fani hisoblanadi. Ayniqsa, matematika darslarida masala bilan ishlash jarayoni

ularning tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Masala bu shunday muammoli vaziyatki, biror shart yoki ko'rsatmalar bilan berilganlar yordamida noma'lumni topish talab qilinadi. Uni hal qilish jarayonida o'quvchi o'rganilgan bilimlaridan foydalanib vaziyatni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Pedagogika va psixologiya fanida masala yechish faoliyati tafakkurni shakllantirishning eng faol shakllaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, L.Vigotskiy[1] o'quvchilarning aqliy rivojlanishida muammoli vaziyatlarning ahamiyatini ta'kidlab, bilim faoliyat jarayonida egallanadi, deb hisoblasa, J.Piaje[2] bolalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab, amaliy faoliyat orqali bilim mustahkamlanishini qayd etadi.

Matematik masala - bu matematika fanidan o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarga asoslangan yechimni, shuningdek, mavhum fikrlashning mantiqiy jihatlarini rivojlantirishni talab qiladigan muammoli savol.

Masala bilan ishlash jarayonida o'quvchi berilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi, ular o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaydi va zarur amallarni tanlaydi. Bu jarayon tahlil, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi aqliy faoliyatni shakllantiruvchi tafakkur amallarini rivojlantiradi. Masalani yechish orqali o'quvchi muammoni tushunish, reja tuzish, yechimni amalga oshirish va natijani tekshirish bosqichlarini bosib o'tadi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini asoslash va xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, nostandart o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ijodiy yondashuvni shakllantiradi va rivojlantiradi. Eng asosiysi ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham bunday masalalarni ishlashga harakat qilishadi.

Masala shartini tahlil qilish va yechimini tushuntirish jarayonida o'quvchi matematik atamalardan to'g'ri foydalanishni o'rganadi. U o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq va izchil bayon etadi. Bu jarayon o'quvchilarning nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalani yechishda o'quvchi shartni diqqat bilan o'qishi, son va amalni eslab qolishi hamda natijani tekshirishi lozim bo'ladi. Bu jarayon diqqatni jamlash va xotirani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan masalalar ko'pincha hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. Ularga vaqtni aniqlash, pulni hisoblash, masofani toppish, predmetlar sonini aniqlash va shunga o'xshash muammoli masalalar taqdim qilinadi. Bu esa o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirib, matematik bilimlarning hayot bilan bog'liqligini anglashlariga yordam beradi. Masala yechish jarayonida sabr-toqat, izchillik, mas'uliyat, o'z-o'zini nazorat qilish kabi sifatlar shakllanadi. Guruhli ishlarda esa hamkorlik, o'zaro hurmat va fikr almashish ko'nikmalari rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda masala bilan ishlash o'quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, nutq madaniyati va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Masalalarning hayotiy va muammoli xarakterga ega bo'lishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida turli tipdagi masalalardan (oddiy, murakkab, mantiqiy, nostandart) tizimli ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nostandart masala - bu reproduktiv yechim usullari bilan aniqlab bo'lmaydigan va o'quvchilardan masalaga mos yechimni topishni talab qiladigan, ijodiy ishlashga undovchi masala. Talabalarga nostandart muammolarni yechishni o'rgatish nafaqat qiziqarli, balki ancha qiyin bo'lib, pedagogika, metodologiya, psixologiya, shaxsiy ijodkorlik va boshqa ko'p narsalarni qo'llashni talab qiladi. Nostandart muammolarni yechish individual ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun, ijodiy jarayonda ishtirok etadigan muhim elementlar qanchalik ko'p ko'rib chiqilsa, maqsadga shuncha muvaffaqiyatli erishiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy jarayonning bir nechta jihatlarini yoritib beruvchi ilmiy ishlarda odatda deyarli bir xil bo'lgan o'xshash bosqichlar kuzatiladi. Xuddi shu bosqichlar muammolarni yechish ketma-ketligini o'rganishda ham yaqqol ko'rinadi. Matematikani

o'rganishda olimlar L.M.Fridman, E.N.Turetskiy[3] va boshqalar bu jarayonni quyidagi sakkiz bosqichda ifodalaydilar:

- 1) masalani tahlil qilish;
- 2) masalani yechish;
- 3) yechim topish;
- 4) yechimni amalga oshirish;
- 5) yechimni tekshirish;
- 6) masalani tadqiq qilish;
- 7) masalaga javobni shakllantirish;
- 8) yechimni tahlil qilish.

O'quvchilar ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsadida masalani yechish uchun bu bosqichlarni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Shunday qilib, ijodiy jarayonning tuzilishi va muammoni hal qilish jarayonining tuzilishi asosan bir xil. Xulosa qilib aytganda, biz ijodiy faoliyatning quyidagi ketma-ketligini aniqlashimiz mumkin:

- 1) masalani savol berish orqali tahlil qilish (muammoni ko'ra olish qobiliyati);
- 2) masalani yechishda uni hal qilish usullari va metodlarini aniqlash uchun zarur bilimlardan foydalanish;
- 3) masalani yechish uchun berilgan ma'lumotlar bo'yicha eng asosiy qismini aniqlash;
- 4) olingan xulosalar va taxminlarni umimlashtirish orqali asosiy yechish usulini aniqlashtirish;
- 5) asosiy yechish usulini matematik bilimlarga tayanib yechim topish;
- 6) yechimni teskari masala tuzish orqali tahlil qilish.

Bu bosqichlar ijodiy jarayonni ya'ni, muammoni hal qilish jarayonini aks ettiradi.

Masala.(27-bet, 9-masala)[4]

Qirradi 1 m bo'lgan bo'yalgan kub qirradi 1 cm bo'lgan kubiklarga bo'lindi. Uchta yog'i bo'yalgan kubik nechta bo'ladi? Ikkita yog'i bo'yalgan kubik-chi? Bitta yog'i bo'yalgan kubik-chi? Hech qaysi yog'i bo'yalmagan nechta kubik hosil bo'ladi?

1) Masalani savol berish orqali tahlil qilish. Berilgan masalani savol berish orqali tahlil qilamiz:

- 1-savol: Masala nima haqida?
- 2-savol: Masalada nima so'ralgan?
- 3-savol: Kub qanday bo'yaladi?
- 4-savol: Bo'yalgan va bo'yalmagan kubchalar kubning qayerida joylashadi?

Bunday savol-javoblar orqali o'quvchilarning matematik nutqi, matematik tafakkuri va fikrlash doirasi rivojlanishiga erishiladi.

2) Masalani yechishda uni hal qilish usullari va metodlarini aniqlash uchun zarur bilimlardan foydalanish.

Berilgan masalani yechish uchun kub, uning uchi, qirradi, yoqlari haqidagi, kvadratni teng kvadratlarga ajratish va kubni teng kubchalarga ajratish haqidagi hamda o'lchov birliklari orasidagi bog'lanishlarga oid bilimlarga tayaniladi. Bu bosqich o'quvchining mustaqil fikrlashga o'rgatadi va xotira mashqi bo'lib bilimlarni yanada mustahkamlashga erishiladi.

3) Masalani yechish uchun berilgan ma'lumotlar bo'yicha eng asosiy qismini aniqlash.

Bu bosqich masala yechish uchun eng asosiy bosqich bo'lib, masalani yechishni aynan qaysi berilgan ma'lumot orqali aniqlash yoki eng avvalo qaysi noma'lumni aniqlash kerakligi aniqlashtiriladi. Yuqorida berilgan masalada avvalo kubni kubchalarga ajratish kerak. Bu bosqich o'quvchilarning fikrlashi, mantiqiy izchillikni aniqlashi uchun juda muhim.

4)Olingan xulosalar va taxminlarni umimlashtirish orqali asosiy yechish usulini

aniqlashtirish. Berilgan masalada yechish usullarini aniqlashtirish uchun muammoni hal qilish ketma-ketligini aniqlashtiramiz.

Berilgan kubni kubchalarga bo'lgandan keyin uch yog'i bo'yalgan kubchalar kubning uchlarida, ikki yog'i bo'yalgan kubchalar kubning qirralarida, bir yog'i bo'yalgan kubchalar kubning yoqlarida va umuman yoqlari bo'yalmagan kubchalar kubning bo'yalmagan qismida ya'ni kubning ichkari qismida joylashganligi aniqlanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning tasavvir qilish qobiliyatlari yanada rivojlanadi.

5) Asosiy yechish usulini matematik bilimlarga tayanib yechim topish.

$1m=100\text{ cm}$ va $1m$ uzunlikdagi kesmani 1 cm uzunlikdagi 100 ta bo'laklarga bo'linadi. Demak, berilgan kub $100\cdot 100\cdot 100=1000000$ ta kubchalarga ajraladi.

Kubda 8 ta uch bo'lganligi uchun uch yog'i bo'yalgan kubchalar soni 8 ta bo'ladi.

Har bir qirrada 100 tadan kubcha joylashadi va qirraning uchlarida joylashgan kubchalar uch yog'i bo'yalgan kublar. Demak, har bir qirrada ikki yog'i bo'yalgan kubchalar 98 tadan va kubda 12 ta qirra bo'lganligi uchun jami ikki yog'i bo'yalgan kubchalar soni $98\cdot 12=1176$ ta.

Bir yog'i bo'yalgan kubchalar kubning yoqlarida ya'ni, kubning bir yog'ida $100\cdot 100=10000$ ta kubcha joylashgan bo'lib, kubning qirralarida ikki yog'i va uch yog'i bo'yalgan kubchalar joylashgan. Demak, kubning bir yog'ida $98\cdot 98=9604$ ta kubcha, kubning yoqlari soni 6 ta ekanligini e'tiborga olsak kubda jami bir yog'i bo'yalgan kubchalar $6\cdot 98\cdot 98=57624$ ta.

Endi hech qaysi yog'i bo'yalmagan kubchalarni topamiz. Buning uchun kubning yoqlarida joylashgan bir qator kubchalardan tashqari kubchalarni aniqlaymiz. Kubning qirralarsi bo'ylab joylashgan kubchalar 100 ta edi va biz uning bo'yalgan kubchalarini olganimiz uchun kubchalarni 2 taga kamaytirdik ya'ni $100-2=98$. Demak, bo'yalmagan kubchalar $98\cdot 98\cdot 98=941192$ ta.

6) Yechimni teskari masala tuzish orqali tahlil qilish.

Berilgan masalani teskarisidan hisoblab, tekshirib olamiz. Bu orqali biz masalani qanchalik to'g'ri yechganimizni aniqlaymiz.

Masala shartiga ko'ra qirradi 1 m bo'lgan kub qirradi 1 cm bo'lgan kubchalarga ajratilgan va uch yog'i bo'yalgan kubchalar, ikki yog'i bo'yalgan kubchalar, bir yog'i bo'yalgan kubchalar hamda umuman yoqlari bo'yalmagan kubchalar ya'ni to'rt xil ko'inishdagi kubchalar hosil bo'lgan. Biz aniqlagan kubchalarni qo'shsak umumiy kubchalar soni 1000000 ta chiqishi kerak. Yuqorida yechilgan masalaga ko'ra:

bir yog'i bo'yalgan kubchalar – 57624 ta

ikki yog'i bo'yalgan kubchalar – 1176 ta

uch yog'i bo'yalgan kubchalar – 8 ta

yoqlari bo'yalmagan kubchalar – 941192 ta

Aniqlangan to'rt xil ko'rinishdagi kubchalarni qo'shamiz:
 $57624+1176+8+941192=1000000$

Demak, masala to'g'ri yechilgan. Bu bosqichda o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish sifatleri oshishiga erishiladi.

Boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarni nostandart masalalarni yuqorida keltirilgan ijodiy fiklashga o'rgata olsak, biz kelajak avlodning fikrlashi mantiqan to'g'ri, izchil, tizimli va dunyoqarashi keng bo'lib tarbiyalanishiga erishamiz. Yuqorida keltirilgan jihatlarni o'zida jamlagan o'quvchi keng tafakkuri, mustaqil fikrlovchi, nutqi ravon, diqqat va xotirasi mustahkam, ma'nan yetuk, har bir yangilikka qiziquvchan, ijodkor va keng imkoniyatli bo'lib voyaga yetadi. Bular esa yurtimiz kelajagi uchun ilmiy yutuqlarni yaratuvchi, ta'lim sohasining yanada rivojlanishi uchun xizmat qiluvchi avlod tarbiyalanayotganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatmalarni o'quvchilarga aniq va yetarli qilib o'rgatish esa o'qituvchilardan juda katta mas'uliyat va kuch talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Л.С.Выготский. Собрание сочинений в шести томах.: Т.2 /Л.С. Выготский. -М.: Педагогика, 1982. - 502 с.
2. Ж.В.Пиаже. «Речь и мышление ребенка». — Государственное учебно-педагогическое издательство. М.: Римис, 2008. - 448 с.
3. Л.М.Фридман. Как научиться решать задачи: пособие для учащихся.- 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Просвещение, 1984. - 175 с.
4. I.V.Repyova. Matematika. 4-sinf. 4-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent-2023. 27-bet, 9-masala
5. B.X.Xodjayev. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 240 b.
6. N.N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent: TDPU, 2006. - 180 b.
7. K.R.Karimova. O'qituvchilarga boshlang'ich sinf o'quvchilari kreativligini rivojlantirish uchun uslubiy ko'rsatmalar. O'zMU xabarlari 1/5 2025